



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 196 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyutayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	



INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA INTERFAOL METODLAR ORQALI O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Shukurullayeva Madina

A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti
3.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada inklyuziv ta'lim muhitida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Inklyuziv sinfda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, o'z fikrini ifodalashi va hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etishining ahamiyati asoslangan. Kommunikativ ko'nikmalarning axborot-kommunikativ, nazorat-kommunikativ va affektiv-kommunikativ tarkibiy jihatlari yoritilgan. "Aqliy hujum", "Rolli o'yin", "Bahs-munozara", "Juftlikda ishlash" va "Kichik guruhlarda ishlash" metodlarining kommunikativ rivojlanishga ta'siri tahlil etilgan. Interfaol metodlarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish zarurati aniqlangan. Nazariy tahlil asosida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligi, hamkorligi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish imkoniyatini kengaytirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, interfaol metod, kommunikativ ko'nikma, kommunikativ kompetentlik, muloqot, hamkorlik, ijtimoiylashuv.

Abstract: The article analyzes the pedagogical potential of interactive methods for developing students' communication skills in an inclusive educational environment. It substantiates the importance of communication, self-expression, and participation in collaborative activities between students with special educational needs and their peers. The informational-communicative, regulatory-communicative, and affective-communicative components of communication skills are considered. The effects of brainstorming, role-playing, discussion, pair work, and small-group work on students' communicative development are analyzed. Particular attention is paid to adapting interactive methods to the individual abilities and educational needs of learners. Based on theoretical analysis, the main pedagogical conditions for developing communication skills are systematized. The findings indicate that the purposeful use of interactive methods can enhance students' speech activity, cooperation, meaningful participation, and social adaptation in inclusive classrooms.

Key words: inclusive education, special educational needs, interactive methods, communication skills, communicative competence, communication, cooperation, socialization.

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности использования интерактивных методов для формирования коммуникативных навыков учащихся в условиях инклюзивного образования. Обосновывается значение общения, выражения собственного мнения и участия в совместной деятельности учащихся с особыми образовательными потребностями со сверстниками. Раскрываются информационно-коммуникативный, регулятивно-коммуникативный и аффективно-коммуникативный компоненты коммуникативных навыков. Анализируется влияние методов "Мозговой штурм", "Ролевая игра", "Дискуссия", "Работа в парах" и "Работа в малых группах" на коммуникативное развитие учащихся. Определена необходимость адаптации интерактивных методов к индивидуальным возможностям учащихся с особыми образовательными потребностями. На основе теоретического анализа систематизированы основные педагогические условия развития коммуникативных навыков. Сделан вывод о том, что целенаправленное использование интерактивных методов способствует развитию речевой активности, сотрудничества и социальной адаптации учащихся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, интерактивные методы, коммуникативные навыки, коммуникативная компетентность, общение, сотрудничество, социализация.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga individual xususiyatlari va ta'lim ehtiyojlaridan qat'i nazar sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyat yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim shakli sifatida belgilangan^[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son¹ qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son² qarori bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, ularni umumiy ta'lim jarayoniga jalb etish va zarur pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirishning huquqiy asoslari mustahkamlandi^[2; 3].

Inklyuziv ta'limning samaradorligi o'quvchining faqat ta'lim tashkilotida yoki sinfdagi jismonan mavjudligi bilan belgilanmaydi. O'quvchining tengdoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatishi, o'z fikri va ehtiyojlarini ifodalashi, suhbatdoshini tinglashi, savol berishi, hamkorlikdagi faoliyatda qatnashishi va o'zini sinf jamoasining teng huquqli a'zosi sifatida his qilishi ham inklyuziyaning muhim ko'rsatkichlaridir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ayrim o'quvchilarda o'z fikrini bayon etish, yangi muhitga moslashish, tengdoshlari bilan juftlik va guruhda ishlash hamda kommunikativ vaziyatlarda mustaqil ishtirok etish bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday holat bolaning nafaqat ta'lim natijalariga, balki ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin^[4].

Shu sababli inklyuziv ta'lim jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni maqsadli shakllantirish va buning uchun o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi pedagogik usullardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Mazkur nuqtayi nazardan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida bevosita muloqot, o'zaro ta'sir, fikr almashish va birgalikdagi faoliyatni tashkil etishi bilan inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillariga mos keladi.

Tadqiqotning obyekti - inklyuziv ta'lim muhitida o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoni.

Tadqiqotning predmeti - interfaol metodlar asosida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning maqsadi - inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va metodik jihatdan asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

- kommunikativ ko'nikma tushunchasining pedagogik mohiyatini tahlil qilish;
- inklyuziv ta'lim muhitida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- interfaol metodlarning kommunikativ rivojlanishga ta'sir etish imkoniyatlarini o'rganish;
- interfaol metodlarni inklyuziv sinf sharoitiga moslashtirishning pedagogik shartlarini tizimlashtirish;
- kommunikativ yo'naltirilgan interfaol faoliyatni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ rivojlanish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlarida bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va boshqa insonlar bilan o'zaro munosabat jarayoni bilan uzviy bog'langan. Olimning fikriga ko'ra, yuqori psixik funksiyalar dastlab shaxslararo munosabatlarda, keyinchalik esa shaxsning ichki psixologik tuzilmasida shakllanadi^[5]. Mazkur nazariy yondashuv inklyuziv ta'limda tengdoshlar va pedagog bilan hamkorlikdagi faoliyatning ahamiyatini asoslash imkonini beradi.

A.A. Leontyev kommunikatsiyani shunchaki axborot almashish emas, balki inson faoliyatining alohida shakli sifatida izohlaydi. Nutq va kommunikativ faoliyat insonning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va boshqalarga yetkazishida muhim vosita sanaladi^[6].

Kommunikativ kompetentlik shaxsning faqat to'g'ri gapirishi bilan cheklanmaydi. U suhbatdoshni tinglash, muloqot vaziyatini tushunish, fikrni maqsadga muvofiq ifodalash, suhbat jarayonini boshqarish, boshqalarning pozitsiyasini anglash va hamkorlikni tashkil etish kabi ko'nikmalarni ham qamrab oladi.

¹ <https://lex.uz/docs/-5044711>

² <https://lex.uz/ru/docs/-5679836>



Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqiy va kommunikativ rivojlanish masalalari turli yo'nalishlarda o'rganilgan. D.A. Nazarova zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini, L.R. Mo'minova nutq rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalashning pedagogik asoslarini, U.Yu. Fayziyeva esa nutqni rivojlantirishning metodik jihatlarini tadqiq qilgan [7; 8; 9].

Inklyuziv ta'lim sharoitida esa kommunikativ ko'nikma alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bola ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda o'qituvchi va tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi, savol beradi, javob beradi, yordam so'raydi, o'z fikrini himoya qiladi va turli ijtimoiy vaziyatlarda ishtirok etadi.

V.S. Tretyakova tadqiqotlari ayrim o'quvchilar inklyuziv sinfda jismonan mavjud bo'lsalar-da, kommunikativ jihatdan ajralib qolishlari mumkinligini ko'rsatadi [10]. Bu holat inklyuziv ta'limda "mavjud bo'lish" va "faol ishtirok etish" tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini ko'rsatadi.

Y.A. Romanova, A.Yu. Mustapayeva va L.Yu. Belenkovaning ishlarida o'yin hamda interfaol faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligi, mustaqil fikrlashi va o'zaro muloqotini rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi [11; 12; 13].

Ilmiy adabiyotlarning tahlili kommunikativ rivojlanish, interfaol ta'lim va inklyuziv ta'lim masalalari alohida-alohida keng tadqiq qilinganini ko'rsatadi. Biroq interfaol metodlarni aynan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirish, metodlarni kommunikativ maqsad asosida tanlash hamda o'quvchining faol ishtirokini baholashga qaratilgan yaxlit metodik yondashuvni rivojlantirish dolzarbligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kommunikativ va inklyuziv pedagogik yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy metodlar** - tadqiqot muammosiga doir pedagogik, psixologik va maxsus pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish;
2. **Qiyosiy tahlil** - an'anaviy va interfaol pedagogik faoliyatning kommunikativ imkoniyatlarini o'zaro solishtirish;
3. **Pedagogik modellashtirish** - inklyuziv sinfda kommunikativ faoliyatni tashkil etuvchi interfaol metodlarning mazmuniy aloqalarini aniqlash;
4. **Kontent-tahlil** - kommunikativ ko'nikmalarni tavsiflovchi tushunchalar, mezonlar va pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy manbalar asosida guruhlashtirish.

Tahlilda kommunikativ ko'nikmaning uchta asosiy tarkibiy yo'nalishi asos sifatida olindi:

1. **Axborot-kommunikativ komponent** - muloqotga kirishish, savol berish, axborotni uzatish va qabul qilish, verbal va noverbal vositalardan foydalanish;
2. **Nazorat-kommunikativ komponent** - o'z kommunikativ xatti-harakatlarini suhbatdosh va vaziyatga moslashtirish, birgalikdagi faoliyatni muvofiqlashtirish;
3. **Affektiv-kommunikativ komponent** - his-tuyg'ularni ifodalash, suhbatdoshning holatini anglash, empatiya va hissiy qo'llab-quvvatlash.

Ushbu komponentlarning interfaol metodlar bilan o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida inklyuziv sinf o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish faqat nutqiy mashqlar yoki o'qituvchi bilan individual suhbatni tashkil etish orqali cheklanmasligi aniqlandi. Kommunikativ ko'nikma, eng avvalo, muloqot qilish zarurati yuzaga keladigan real yoki modellashtirilgan hamkorlik faoliyatida rivojlanadi.

Boshqacha aytganda, o'quvchiga "muloqot qilishni o'rgatish" bilan birga, uning muloqot qilishiga ehtiyoj tug'diradigan pedagogik vaziyat yaratilishi lozim.

Interfaol metodlarning pedagogik ustunligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi.



1-jadval: Interfaol metodlarning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari

Interfaol metod	Asosiy kommunikativ faoliyat	Rivojlantiriladigan ko'nikma	Inklyuziv moslashtirish imkoniyati
Juftlikda ishlash	ikki tomonlama muloqot	tinglash, savol berish, javob berish	kommunikativ sherik tanlash, tayanch savollar
Kichik guruhda ishlash	hamkorlikdagi muhokama	fikr almashish, kelishish, yordam so'rash	vazifalarni individual imkoniyatga ko'ra taqsimlash
Rolli o'yin	hayotiy vaziyatni modellash	muloqotni boshlash va davom ettirish	vizual ssenariy, piktogramma, tayanch iboralar
Aqliy hujum	erkin fikr almashish	tashabbus, fikr bildirish, boshqalarni tinglash	javobni og'zaki, yozma yoki tasvir orqali berish
Bahs-munozara	pozitsiyalarni muhokama qilish	fikrni asoslash, savol berish, munosabat bildirish	sodda savollar va kommunikativ qoliplardan foydalanish
Didaktik o'yin	qoidalari hamkorlik	navbat kutish, murojaat qilish, sherik bilan aloqa	qoida va ketma-ketlikni vizuallashtirish
Muammoli vaziyat	birgalikda yechim topish	muzokara, qaror qabul qilish, hamkorlik	muammoni kichik bosqichlarga ajratish

Tahlil shuni ko'rsatdiki, interfaol metodning kommunikativ samaradorligi metodning nomiga emas, balki uning qanday pedagogik maqsad bilan tashkil etilishiga bog'liq.

Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratgani bilan, agar guruhda faqat bir yoki ikki faol o'quvchi topshiriqni bajarsa, qolgan o'quvchilar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola passiv kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin. Bunday vaziyat tashqi shakliga ko'ra interfaol bo'lsa-da, kommunikativ maqsadga to'liq xizmat qilmaydi.

Shuning uchun guruhdagi har bir ishtirokchiga bajarishi mumkin bo'lgan aniq kommunikativ rol berish lozim. Masalan, "savol beruvchi", "javoblarni tinglovchi", "rasm tanlovchi", "guruh fikrini bildiruvchi", "materiyalarni taqsimlovchi" kabi rollardan foydalanish mumkin.

Bu yondashuv alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchini boshqalardan ajratib qo'ymasdan, umumiy faoliyatning mazmunli ishtirokchisiga aylantiradi.

Kommunikativ faoliyatning tarkibiy modeli

Nazariy tahlil kommunikativ rivojlanishni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi:

muloqotga motivatsiya → muloqotga kirishish → axborot almashish → tinglash va javob qaytarish → hamkorlik → mustaqil kommunikativ faoliyat.

Dastlab o'quvchida boshqa ishtirokchi bilan aloqa qilishga ehtiyoji yuzaga kelishi kerak. Keyingi bosqichda u muloqotni boshlash va suhbatdoshga murojaat qilishni o'rganadi. Shundan keyin savol-javob, fikr almashish va o'zaro yordam orqali kommunikativ faoliyat murakkablashib boradi. Yakuniy bosqichda esa o'quvchi pedagogning doimiy yordamisiz turli vaziyatlarda kommunikativ strategiyani mustaqil tanlay boshlaydi.

Rolli o'yinlarning kommunikativ imkoniyatlari. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning kundalik kommunikativ vaziyatlarga tayyorlanishida rolli o'yinlardan foydalanish samarali pedagogik imkoniyat yaratadi.

"Do'konda", "Mehmon kutamiz", "Do'stimdan yordam so'rayman", "Maktab oshxonasida", "Shifokor qabulida", "Yangi sinfdosh bilan tanishaman" kabi vaziyatlar o'quvchiga real hayotdagi kommunikativ tajribani xavfsiz pedagogik muhitda mashq qilish imkonini beradi.

Bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi uchun vaziyatni oldindan tushuntirish, rolning vazifasini soddalashtirish, vizual algoritmlar yaratish, tayanch savol va jumalardan foydalanish, javob berish uchun qo'shimcha vaqt ajratish o'quvchilarning kommunikativ ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi.

Masalan, "Do'konda" rolli o'yinida quyidagi kommunikativ algoritmdan foydalanish mumkin:

salomlashish → mahsulotni so'rash → narxini aniqlash → minnatdorlik bildirish → xayrlashish.

Bu usul o'quvchiga murakkab kommunikativ vaziyatni tushunarli bosqichlarda egallash imkonini beradi.

Juftlik va kichik guruhlarining ahamiyati. Juftlikdagi faoliyat, ayniqsa, katta guruh oldida gapirishda qiyinchilik sezadigan o'quvchilar uchun qulay kommunikativ muhit yaratadi. O'quvchi avval bitta sherik bilan muloqot qilishni o'zlashtirib, keyinchalik kichik va katta guruhlardagi faoliyatga qo'shilishi mumkin.




Kichik guruhlardagi vazifalar esa faqat bilimni tekshirish emas, balki quyidagi kommunikativ vazifalarni hal etishga yo'naltirilishi lozim:

- sherigiga savol berish;
- undan ma'lumot olish;
- o'z fikrini tushuntirish;
- boshqalarning fikrini tinglash;
- umumiy qarorga kelish;
- yordam so'rash;
- yordam taklif etish;
- guruh nomidan fikr bildirish.

Shu jihatdan guruh faoliyatining natijasini faqat tayyorlangan plakat yoki yozilgan javob bilan emas, balki o'quvchilarning hamkorlik jarayoni orqali baholash maqsadga muvofiq.

Kommunikativ ko'nikmalarni kuzatish mezonlari. Nazariy tahlil asosida inklyuziv sinfda kommunikativ rivojlanishni kuzatishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:



Kommunikativ ko'nikmalarni kuzatish mezonlari diagrammasi.

Ushbu mezonlar o'quvchining bir-biri bilan taqqoslanishini emas, balki har bir bolaning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Interfaol metodlarni inklyuziv moslashtirish. Tahlillar interfaol metodlarni inklyuziv sinfda samarali tashkil etish uchun beshta muhim pedagogik shart mavjudligini ko'rsatdi.

Birinchi shart - psixologik xavfsiz muloqot muhiti. O'quvchi noto'g'ri javob berishdan yoki tengdoshlari tomonidan masxara qilinishdan qo'rqmasligi lozim.



Ikkinchi shart - kommunikativ vazifaning aniqligi. Pedagog “guruhda ishlang” deb umumiy ko’rsatma berish bilan cheklanmasdan, o’quvchilarning aynan qanday kommunikativ harakatni bajarishini belgilashi zarur.

Uchinchi shart - individual moslashtirish. Topshiriqning murakkabligi, muloqot shakli, vaqt va qo’llab-quvvatlash darajasi o’quvchining individual imkoniyatlariga moslashtiriladi.

To’rtinchi shart - vizual va kommunikativ tayanchlardan foydalanish. Piktogramma, rasm, savol kartochkasi, jumla boshlanishi, ketma-ketlik algoritmi kabi vositalar kommunikativ ishtirokni yengillashtiradi.

Beshinchi shart - tengdoshlararo hamkorlikni pedagogik resurs sifatida qo’llash. Tengdoshlar faqat bir sinfda ta’lim olayotgan o’quvchilar emas, balki muloqotni o’rganishning tabiiy sheriklari sifatida qaraladi.

Shunday qilib, nazariy tahlil interfaol metodlarning inklyuziv ta’limdagi pedagogik qiymati ularning o’quvchini ta’lim jarayonida “faol qilish”dangina iborat emasligini ko’rsatadi. Ularning asosiy imkoniyati o’quvchiga boshqa insonlar bilan mazmunli o’zaro munosabat o’rnatish, kommunikativ tajribani egallash va ijtimoiy faoliyatning teng huquqli ishtirokchisiga aylanish uchun sharoit yaratishidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, kommunikativ ko’nikmalar inklyuziv ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchining sinfdagi ishtiroki uning faqat akademik vazifalarni bajarishi bilan emas, balki tengdoshlari va pedagoglar bilan muloqotga kirishishi, o’z fikrini ifodalashi hamda hamkorlikdagi faoliyatda qatnashishi bilan ham belgilanadi.

Ikkinchidan, interfaol metodlar kommunikativ rivojlanish uchun tabiiy pedagogik vaziyat yaratadi. Juftlikdagi va kichik guruhlardagi faoliyat, rolli o’yin, bahs-munozara, aqliy hujum hamda muammoli vaziyatlar o’quvchilarni tinglash, gapirish, savol berish, fikr almashish va birgalikda qaror qabul qilishga undaydi.

Uchinchidan, interfaol metodlarni qo’llashning o’zi inklyuziv natijani kafolatlamaydi. Metod alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchining individual kommunikativ ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilishi lozim.

To’rtinchidan, kommunikativ rivojlanishning samaradorligi psixologik xavfsiz muhit, individual pedagogik yordam, vizual tayanchlar, tengdoshlararo hamkorlik va pedagogning kommunikativ kompetensiyasiga bog’liq.

Beshinchidan, kommunikativ ko’nikmalarni baholashda faqat nutqning grammatik yoki lug’aviy tomoniga emas, balki o’quvchining muloqot tashabbusi, tinglash qobiliyati, savol-javobdagi faolligi, hamkorligi va kommunikativ mustaqilligiga ham e’tibor qaratish zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar tavsiya etiladi:

- inklyuziv sinflarda interfaol metodlarni tanlashda har bir faoliyat uchun aniq kommunikativ maqsad belgilash;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun interfaol topshiriqlarni mazmunni yo’qotmagan holda individual moslashtirish;
- o’quvchining mustaqil muloqot qilishini yengillashtiruvchi vizual va kommunikativ tayanchlardan foydalanish;
- juftlik va kichik guruhlarni tashkil etishda barcha o’quvchilar uchun mazmunli rol va vazifa yaratish;
- kommunikativ ko’nikmalar rivojlanishini muntazam pedagogik kuzatuv asosida baholash;
- maxsus pedagog va fan o’qituvchisining kommunikativ rivojlantirish bo’yicha hamkorligini kuchaytirish;
- pedagoglar malakasini oshirish dasturlariga “Inklyuziv ta’limda kommunikativ yo’naltirilgan interfaol metodlar” mavzusidagi amaliy mashg’ulotlarni kiritish;
- inklyuziv sinflar uchun rolli o’yinlar, kommunikativ vaziyatlar, juftlik va guruh topshiriqlaridan iborat metodik mashqlar bankini ishlab chiqish.

Umuman, inklyuziv ta’lim muhitida interfaol metodlardan tizimli va kommunikativ maqsadga yo’naltirilgan holda foydalanish o’quvchilarning nafaqat ta’limdagi faolligini, balki o’z fikrini ifodalash, boshqalarni tinglash, hamkorlik qilish, ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil harakat qilish va jamiyatga integratsiyalashuv ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori.
4. Raxmonova D.U. Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari. Monografiya. - Toshkent: ChDPU, 2023.
5. Выготский Л.С. Основы дефектологии. В 6-ти т. - М.: Педагогика, 1983.
6. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. - М.: Просвещение, 1969. - 212 с.
7. Назарова Д.А. Мактабгача ёшдаги заиф эшитувчи болалар нутқини ривожлантириш: пед. фан. номз. дис. - Toshkent: ТДПУ, 2009.
8. Муминова Л.Р. Теоретические основы коррекционно-педагогической работы по преодолению речевого недоразвития у детей дошкольного возраста: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - Toshkent: ТГПУ им. Низами, 1992.
9. Файзиева У.Ю. Нутқ ўстириш. Ўқув қўлланма. - Toshkent: Ўқитувчи, 2001. - 135 б.
10. Третьякова В.С. Игра в социальном и культурном аспекте // Социальная педагогика. - 2019. - №2. - С. 51-53.
11. Романова Ю.А. Игровые технологии в обучении младших школьников // Начальная школа. - 2014. - №5. - С. 45-49.
12. Мустапаева А.Ю. Развитие познавательной активности младших школьников с применением интерактивных методов // Педагогика и психология. - 2018. - №2. - С. 85-89.
13. Беленкова Л.Ю. Применение интерактивных методов обучения в начальной школе // Современное образование. - 2018. - №6. - С. 41-45.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.